

Ochiq dars va ko'rik tanlov

Tabiat ne'matlari yoxud inson qo'li bilan yaratilgan boyliklarning, ixtirolarning me'yoriy mezonlari bor. Ulardan oqilona va samarali foydalanish katta ahamiyatga ega. Har bir narsaning o'z o'lchovi bor. Atoqli shoir Mirzo Abdulqodir Bedilning me'yori haqidagi ushbu bitigi bejiz emas.

Uzluksiz shodlik ham keltiradi g'am

Haddan ortiq bazm misoli motam,

Har narsa me'yordan oshmasa yaxshi

Haddan oshsa o'tdan battarroq suv ham.

Demak, barcha narsa-hodisalarga me'yoriy munosabat muhim masala. Institutimizda 2018 yil 12 dekabr kuni "Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti" fakulteti "Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasida tashabbusi bilan "O'zbekenergo" AJ tomonidan e'lon qilingan "Elektr energiyasidan samarali va oqilona foydalanish oyligini o'tkazish" chora-tadbirlar dasturiga asosan hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 3-dekabrda №87-02-3535 son xatida keltirilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish maqsadida 2018 yil 12 dekabr kuni professor-o'qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar ishtirokida ochiq dars va ko'rik tanlov o'tkazildi.

Tadbirda mehmon sifatida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademigi t.f.d., prof. R.A.Zaxidov hamda "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyatidan 10 nafar mutaxassislar ishtirok etdilar. Jumladan, boshqarma boshlig'i B.G.Qodirov, Yoshlar ittifoqi raisi F.A.Nuraliyev va "O'zbekenergoaxborot" aksiyadorlik jamiyati boshlig'i S.K.Mirzayeva hamda o'rinbosari Z.Sh.Xalikovlar ishtirok etdilar. Tadbir davomida akademik R.A.Zaxidov, B.G.Qodirov, F.A.Nuraliyev, Z.Sh.Xalikov, professor A.Radjabov, fakultet dekani t.f.d. A. Isakova va kafedra mudiri PhD D.Qodirovlar so'zga chiqib elektr energiyasidan samarali, oqilona foydalanish usullari va elektr energiya samaradorligi oshirishning bugungi kundagi amaliy ahamiyati to'g'risida ma'ruzalar qildilar. Tadbir so'ngida qisqa savol-javob ko'rinishida "Blis-so'rov" yo'sinida "Sizningcha, elektr energiyasidan qanday samarali va oqilona foydalanish mumkin?" tarzida ko'rik-tanlov o'tkazildi. Eng to'g'ri va to'la javob bergan faol ishtirokchilar esdalik sovg'alari - badiiy kitoblar bilan taqdirlanishdi.



ET va KTEM kafedra mudiri D.B.Kodirov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov